YOSHLAR TAFAKKURINI YUKSALTIRISHDA MAHALLA VA OLIY TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGINING IJTIMOIY-MADANIY MEXANIZMLARI

СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МАХАЛЛИ И ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ

SOCIO-CULTURAL MECHANISMS OF COOPERATION BETWEEN MAHALLA AND HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN ENHANCING YOUTH THINKING

Djalalova Nigora Xusanovna
Farg‘ona davlat universite
“Musiqiy ta’lim va madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada yoshlar tafakkurini yuksaltirish jarayonida mahalla va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy hamkorlikning o‘rni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, madaniy muhit bilan munosabati, mustaqil fikrlashi va jamiyat hayotidagi ishtirokini shakllantirishda mahalla hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘zaro aloqasi muhim ijtimoiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Mahalla va oliy ta’lim muassasalarining mavjud imkoniyatlarini alohida-alohida emas, balki yagona ijtimoiy-madaniy makon doirasida birlashtirish zarurati asoslanadi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-madaniy faoliyatida gender tengligi tamoyilini ta’minlash masalasi tahlil qilinib, mahalla–OTM hamkorligining ijtimoiy-madaniy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, tafakkur, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy-madaniy muhit, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, mahalla, oliy ta’lim, gender tengligi, ijtimoiy faollik, yoshlar liderligi.

Аннотация В статье с социально-философской точки зрения анализируется роль социально-культурного взаимодействия между махаллей и высшими

образовательными учреждениями в процессе повышения уровня мышления молодёжи. Взаимодействие махалли и высших образовательных учреждений рассматривается как важный социальный фактор формирования социальной активности молодёжи, её отношения к культурной среде, самостоятельного мышления и участия в жизни общества. Обосновывается необходимость объединения имеющихся возможностей махалли и высших образовательных учреждений не раздельно, а в рамках единого социально-культурного пространства.

Также анализируется вопрос обеспечения принципа гендерного равенства в социально-культурной деятельности молодёжи и выдвигаются предложения по совершенствованию социально-культурного механизма взаимодействия махалли и высших образовательных учреждений.

Ключевые слова: молодёжь, мышление, социальное мышление, социально-культурная среда, социально-культурные технологии, махалля, высшее образование, гендерное равенство, социальная активность, молодёжное лидерство.

Abstract This article analyzes, from a socio-philosophical perspective, the role of socio-cultural cooperation between mahalla and higher education institutions in enhancing youth thinking. The interaction between mahalla and higher education institutions is considered an important social factor in shaping young people’s social activity, their relationship with the cultural environment, independent thinking, and participation in social life. The article substantiates the need to integrate the existing capacities of mahalla and higher education institutions not separately, but within a unified socio-cultural space.

It also examines the issue of ensuring the principle of gender equality in the socio-cultural activities of young people and puts forward proposals for improving the socio-cultural mechanism of cooperation between mahalla and higher education institutions.

Keywords: youth, thinking, social thinking, socio-cultural environment, socio-cultural technologies, mahalla, higher education, gender equality, social activity, youth leadership.

Kirish

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni faqat ularning kasbiy tayyorgarligi yoki ta’lim darajasi bilan belgilanmaydi. Yoshlarning ijtimoiy

jarayonlarni anglash darajasi, turli qarash va qadriyatlarni tahlil qilish qobiliyati, jamiyat muammolariga munosabati hamda o‘z tashabbuslarini ijtimoiy muhitda amalga oshira olishi ularning tafakkur rivojining muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Shu sababli yoshlar tafakkurini yuksaltirish masalasi individual rivojlanish doirasidan chiqib, ijtimoiy muhit, madaniyat va jamoaviy munosabatlar bilan bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida mahalla va oliy ta’lim muassasasi yoshlar bilan ishlashning o‘ziga xos ijtimoiy institutlari sifatida alohida ahamiyatga ega. Mahalla yoshlarning kundalik ijtimoiy muhitini shakllantirsa, oliy ta’lim muassasasi ularning ilmiy, intellektual va madaniy imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur ikki muhitning o‘zaro aloqadorligi yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini kuchaytirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

2026-yilda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturi doirasida mahalla faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, mahalla xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini doimiy rivojlantirish hamda mahallalardagi mavjud muammolarni tizimli hal etishga qaratilgan vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmonining 1-ilovasida mahalla xodimlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va ularning bilim hamda ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan[4].

Yoshlar bilan bog‘liq ijtimoiy jarayonlarda qizlar va yigitlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash, ularning jamiyat va davlat hayotida teng ishtirokini kengaytirishga qaratilgan vazifalar belgilangan [5].

Asosiy qism

Yoshlar tafakkurini ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilganda, uni faqat bilimlar yig‘indisi bilan chegaralash mumkin emas. Tafakkur shaxsning ijtimoiy voqelikni anglash,

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi”.

mavjud munosabatlarga baho berish, turli ijtimoiy hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunish va o‘z faoliyatini mazkur voqelik asosida tashkil etish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan yoshlar tafakkurining shakllanishi individual jarayon bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy muhitning xususiyatlariga ham bog‘liq.

P. Burdye jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va madaniy tajribaning inson dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’sirini “ijtimoiy makon” hamda “habitus” tushunchalari orqali izohlaydi. Uning konsepsiyasida shaxsning qarashlari va amaliy faoliyati u yashayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimidan ajralgan holda shakllanmaydi[6]. Mazkur yondashuv yoshlar tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy muhitning rolini anglash uchun muhim nazariy asos bo‘la oladi.

Mahalla aynan shunday ijtimoiy makonlardan biridir. Unda yoshlar turli avlod vakillari, tengdoshlari, jamoatchilik vakillari va mahalliy ijtimoiy institutlar bilan munosabatga kirishadi. Shu sababli mahallaning yoshlar tafakkuriga ta’siri faqat ma’lum tadbirlarni tashkil etish bilan belgilanmaydi. Uning ahamiyati yoshlarning real ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishi, turli qarashlarni eshitishi, muammolarni muhokama qilishi va o‘z fikrini ifodalashi uchun yaratilgan ijtimoiy sharoitlarda namoyon bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasasi esa yoshlarning ijtimoiy va madaniy tajribasini kengaytiruvchi muhim institutdir. Universitet muhiti turli ijtimoiy qarashlar, ilmiy g‘oyalar, madaniy qadriyatlar va ijodiy tashabbuslarning kesishish makoni sifatida namoyon bo‘ladi. Talabaning turli fikrlar bilan muloqotga kirishishi, jamoaviy loyihalarda ishtirok etishi, madaniy tadbirlarni tashkil etishi va ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surishi uning jamiyatdagi faol pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan mahalla va OTM hamkorligini faqat tashkiliy hamkorlik sifatida tushunish yetarli emas. Ularning o‘zaro aloqasi yoshlar uchun yagona ijtimoiy-madaniy makon yaratishga xizmat qilishi kerak. Bunda mahalla yoshlarning real hayotiy ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasini ifodalasa, OTM ilmiy, intellektual va madaniy resurslarni ushbu muhitga olib kiruvchi institut sifatida faoliyat yuritadi.

Bunday hamkorlikning muhim tarkibiy qismi ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanishdir. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni muayyan ijtimoiy maqsadga erishish

[6] Бурдье П. Практический смысл. – СПб.: Алетейя, 2001. – 562 с.

uchun madaniy resurslar, ijtimoiy munosabatlar va inson faoliyatini o‘zaro bog‘lovchi usullar tizimi sifatida talqin qilish mumkin. Ular yoshlarning tayyor axborotni qabul qilishi bilangina cheklanmay, o‘z tajribasini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy masalalar bo‘yicha mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bu jarayonda kutubxona, muzey, teatr, musiqa va san’at muassasalari bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Masalan, mahalla va OTM hamkorligida tashkil etilgan muzey tashriflari tarixiy xotira bilan bog‘liq tasavvurlarni kengaytirishi, kitobxonlik loyihalari ijtimoiy va madaniy masalalarni muhokama qilishga imkon yaratishi, teatr va musiqa tadbirlari esa jamoaviy madaniy tajribani shakllantirishi mumkin. Bunday faoliyatning asosiy natijasi tadbirning o‘tkazilgani emas, balki yoshlarning unda qanday ijtimoiy pozitsiyani egallaganidir.

Shu jihatdan yoshlar ishtirokini “tadbirda qatnashish” darajasida qoldirmaslik muhim. Yoshlar tadbirlarni rejalashtirish, mavzu tanlash, muhokama qilish, tashkillashtirish va natijalarini baholash jarayonlariga ham jalb etilishi kerak. Bunda yoshlarning ijtimoiy tajribasi amaliy faoliyat bilan bog‘lanadi. Natijada ijtimoiy-madaniy faoliyat yoshlarning tafakkurini yuksaltiruvchi omilga aylanadi.

Mahalla va OTM hamkorligining yana bir muhim jihati gender tengligi bilan bog‘liq. Yoshlar bilan ishlash jarayonida qizlar va yigitlarning ijtimoiy-madaniy tashabbuslarda teng ishtirok etishi uchun sharoit yaratish hamkorlikning samaradorligini oshiradi. Gender tengligi bu yerda faqat ishtirokchilar sonining tengligi sifatida emas, balki yoshlarning o‘z fikrini bildirish, tashabbus ko‘rsatish, qarorlar muhokamasida qatnashish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining tengligi sifatida qaralishi lozim.

Mazkur masalada J. Habermasning kommunikativ harakat konsepsiyasi ham nazariy jihatdan ahamiyatlidir. Olim ijtimoiy hamkorlikda muloqot va o‘zaro tushunishning rolini alohida ta’kidlaydi[7]. Yoshlar bilan ishlash jarayonida ham dialogik muloqotning mavjudligi ularning tayyor qarashlarni qabul qilishidan ko‘ra, turli pozitsiyalarni muhokama qilish va o‘z fikrini asoslash imkoniyatini kuchaytiradi.

[7] Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. Том 1. Рациональность действия и социальная рационализация. – М.: Весь Мир, 2000. – 624 с.

Shundan kelib chiqib, mahalla va OTM hamkorligining ijtimoiy-madaniy mexanizmini uch asosiy yo‘nalishda tashkil etish mumkin.

Birinchi yo‘nalish - ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash. Mahalladagi yoshlarning qiziqishlari, ijtimoiy tashabbuslari, madaniy ehtiyojlari va faoliyatdagi mavjud to‘siqlar o‘rganiladi.

Ikkinchi yo‘nalish - ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish. Aniqlangan ehtiyojlar asosida mahalla, OTM va madaniy muassasalar hamkorligida loyihalar amalga oshiriladi. Bunda yoshlar tayyor tadbirlarning ishtirokchisi emas, balki ularning mazmunini shakllantiruvchi faol subyekt sifatida qatnashadi.

Uchinchi yo‘nalish - ijtimoiy refleksiya va baholash. Yoshlar amalga oshirilgan faoliyat natijalarini muhokama qiladi, o‘z tajribasiga baho beradi va keyingi tashabbuslar uchun takliflar ishlab chiqadi. Aynan shu bosqich ijtimoiy-madaniy faoliyatni tafakkur rivoji bilan bog‘lovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur mexanizmda gender tengligi alohida yo‘nalish emas, balki barcha bosqichlarni qamrab oluvchi tamoyil sifatida qaralishi mumkin. Ya’ni ehtiyojlarni o‘rganishdan boshlab, loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish va natijalarni baholashgacha bo‘lgan jarayonlarda qizlar va yigitlarning teng ishtiroki ta’minlanadi.

Bunday yondashuv yoshlar siyosatini faqat tadbirlar tizimi sifatida emas, balki yoshlarning ijtimoiy tajribasi va tafakkurini o‘zgartiruvchi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida ko‘rishga imkon beradi. Mahalla va OTM o‘rtasidagi hamkorlikning samarasi ham aynan shu jihat bilan belgilanadi.

Amaliy takliflar

Mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligining yoshlar tafakkurini yuksaltirishdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Mahalla va OTM o‘rtasida yoshlar bilan ishlashga qaratilgan yillik ijtimoiy-madaniy hamkorlik dasturini ishlab chiqish.
2. Yoshlarning o‘zlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni mahalla miqyosida amalga oshirish uchun sharoit yaratish.
3. Mahalla, OTM, kutubxona, muzey, teatr, musiqa va san’at muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yagona ijtimoiy-madaniy tarmoq sifatida tashkil etish.

4. Qizlar va yigitlarning ijtimoiy-madaniy loyihalarda teng ishtirokini ta’minlash, ularning tashabbuslarini bir xil mezonlar asosida qo‘llab-quvvatlash.
5. Yoshlarning tadbirlardagi ishtirokini faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali emas, balki ularning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi, muhokamadagi faolligi va ijtimoiy mas’uliyatini hisobga olgan holda baholash.
6. Amalga oshirilgan loyihalardan keyin yoshlar ishtirokida refleksiv muhokamalar tashkil etish va keyingi faoliyatni ushbu muhokamalar natijalariga asoslash.

Xulosa

Yoshlar tafakkurini yuksaltirish jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq jarayondir. Yoshlarning tafakkuri faqat ta’lim jarayonida emas, balki kundalik ijtimoiy munosabatlar, madaniy tajriba, jamoaviy faoliyat va ijtimoiy muloqot jarayonida ham shakllanadi.

Mahalla va oliy ta’lim muassasasi ushbu jarayonning turli tomonlarini ifodalovchi, biroq o‘zaro hamkorlik qilganda bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy institutlardir. Mahalla yoshlarning real ijtimoiy muhitini ifodalasa, oliy ta’lim muassasasi ilmiy, intellektual va madaniy resurslarni jamlaydi. Ularning hamkorligi ijtimoiy-madaniy texnologiyalar asosida tashkil etilganda yoshlarning jamiyatdagi faol ishtirokini kuchaytirish imkoniyati ortadi.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan mexanizmning asosini yoshlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini aniqlash, qo‘shma faoliyatni tashkil etish, yoshlarni faol subyekt sifatida jalb qilish va faoliyat natijalarini refleksiv baholash tashkil etadi. Gender tengligi esa ushbu jarayonning barcha bosqichlarida yoshlarning teng imkoniyatlarini ta’minlovchi tamoyil sifatida qaraladi.

Demak, mahalla va oliy ta’lim muassasalari hamkorligini tadbirlarni o‘tkazish bilan cheklamasdan, yoshlarning ijtimoiy tajribasi, madaniy faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida takomillashtirish zarur. Bunday yondashuv yoshlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish bilan birga, ularning jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash va ijtimoiy jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish uchun ham imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son qarori. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi”.
3. Бурдье П. Практический смысл. – СПб.: Алетейя, 2001. – 562 с.
4. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. Том 1. Рациональность действия и социальная рационализация. – М.: Весь Мир, 2000. – 624 с.